UO‘K: 811.512.133 366

NOVERBAL VOSITALARNING ISHLATILISHIGA KO‘RA TURLARI

M.M. Saidxonov

Maqola aloqa-aralashuvida ishlatiladigan paralingvistik vositalarning funksional jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular kommunikativ akt doirasida talqin etilgan. Muloqot jarayonida biz qo‘llaydigan imo-ishoralar ma’lum maqsadni voqelantirish uchun ishlatiladi. Kommunikatsiyada adresant va adresat o‘zaro aloqaga kirishganida axborot uzatishda turli harakatlar orqali imo-ishora bilan o‘z “fikr”ini suhbatdoshga yetkazadi va retsipient nonutqiy belgilar yordamida uni qabul qiladi va mos ravishda javob beradi. Kuzatuvlar natijasida paralingvistik vositalar besh turga ajratildi va shu asnoda tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: *paralingvistika; ko‘rsatuvchi, izohlovchi-ta’kidlovchi, ramziy; tasvirlovchi; emotsional belgilar.*

Статья посвящена функциональным аспектам паралингвистических средств, используемых в узбекском общении, и их интерпретации в рамках коммуникативного акта. Жесты, которые мы применяем в процессе общения, используются для реализации определенной цели, В общении, когда адресант и адресат взаимодействуют, они передают свою «мысль» собеседнику с помощью жестов посредством различных действий при передаче информации, а реципиент получает ее с помощью невербальных знаков и реагирует соответствующим образом. В результате наблюдений паралингвистические средства были разделены на пять типов и таким образом проанализированы.

Ключевые слова: *паралингвистика, указательные, объяснительно-подчеркивающие, символические, описательные, эмоциональные знаки.*

Kirish

O‘zbeklarda ishlatiluvchi ishoralarga aloqa-aralashuvda ma’lum axborot uzatuvchi kishi organlari harakatlari (somakinemalar) kiradi. So‘zlovchi va tinglovchi muomalasi noverbal kanal orqali amalga oshiriladi.

Insonlarning ishoralar orqali fikr ifodalashi, yuzlarida emotsional-mimik o‘zgarishlarning ko‘rinishi, garchi fiziologik, biologik jarayon bo‘lsa-da, u muloqotning, kommunikantlarning o‘zaro axborot almashinuvining natijasidir. Shunga ko‘ra imo-ishoralar antropologlarning o‘rganish obyekti bo‘lmasdan, ma’lum jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy holat bilan aloqador bo‘lgani sababli, bevosita tilshunoslar tomonidan o‘rganilishi kerak.

Ishoralar o‘zbek aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi vositalardan biridir. Inson so‘zlashuv jarayonida o‘z fikrini imkon qadar tez, qisqa vaqt ichida, nutq organlarini kam ishlatgan holda, tushunarli, ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib yetkazishga harakat qiladi. Shu o‘rinda fikr almashuvda ishoralar ahamiyatli sanaladi.

O‘zbeklar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi ishoralar kishining ma’lum organlari (bosh, qo‘l, yelka; ko‘z, qosh va b.) harakati orqali ifodalanadi va o‘zbek so‘zlashuv jarayonining bir qismi sanaladi. Har qanday ifoda mantiqiy mazmun va emotsional-ekspressiv munosabatning sintezidan iborat va uning ifoda shakli emotsional semantikani bildiradi. Buni ro‘yobga chiqaruvchi vositalarga esa, avvalambor, ishoralar, mimika va boshqalar kiradi [1. B. 149].

Ishora so‘zining ma’nosi, ishlatilish chegarasi, u anglatgan kinema ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Ishora (jest) ning hozirga qadar barcha uchun tushunarli bo‘lgan ta’rifi yo‘q. Ilmiy adabiyotlarda ishora (jest) ma’nosi 2 xil tarzda talqin qilinadi. Birinchi guruhdagi olimlar “ishora”ni keng ma’noda tushunib, aloqa-aralashuvda qatnashuvchi barcha yordamchi vositalarni uning tarkibiga kiritadilar. Ikkinchi guruhdagilar esa “ishora”ni tor doirada tahlil qilib, kishining badan harakatlari bilan bog‘liq ekanini aytadilar [2].

L.A.Kapanidze va Ye.V.Krasilnikovalar: “kommunikativ xarakter kasb etuvchi shartli kinetik akt – ishora (jest)dir” [3]. Ular ishoraning ma’nosini birmuncha umumlashtirgan holda ifoda etishadi.

“Jest” – imo va ishora [4. B. 129] – “ko‘z, qosh, qo‘l, bosh harakati bilan berilgan belgi, imo”ni bildirib [5. B. 344], qadimdan aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi vositadir. “Devonu lug‘otit turk” [6. B. 97–98]da *im – im , imladi – imladi* so‘zlari “belgi qilmoq”, “ishora qilmoq”, “ko‘zni qismoq” kabi ma’nolarni ifodalash

uchun ishlatilgan. Bunda mimika va ishoralar "belgi qilmoq" ma'nosida ishlatiladi: imladi – *anlar maba qo'shin kozin* (ularga qosh va ko'zlari bilan ishora qildi).

Alisher Navoiy ham asarlarida ishora fe'llaridan keng foydalangan va ular kishi organlari (muchalari) ning turli harakatlari orqali adresatga ma'no uzatilishini ta'kidlagan.

Barmoq ishorati bila havog'a mashg'urotlarni "Umar" yo "Ali"dek bitir ermish. ("Xamsatul mutaxayyirin")

Bu o'rinda fikr ifodalashda ishora obyekti ko'rsatilib, ham barmoq harakati ishora vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur aloqa vositasini o'rganishga barcha tillarda qadimdan e'tibor qaratilgan. Ferdinand de Sossyur nazariy ta'limotida qayd etilgan bu kommunikativ vosita tillarda paralingvistik, supersegment, ekstralingvistik, noverbal, eksternal til, nolisoniy vositalar kabi bir qator nom bilan tadqiq etilmoqdaki, barchasi uchun nonutqiy ravishda qo'shimcha ma'no ifodalash asosiy mezon sanaladi.

Material va usullar

Noverbal vositalarning ishlatilishiga ko'ra turlarini aniqlashda kommunikativ akt tahlilga tortiladi. Unda ishoraning qanday maqsadda ishlatilayotgani ahamiyatli bo'lib, u ifodalayotgan mazmun plani ustuvor bo'ladi. Shunga ko'ra uning tahlilida tasvir va tavsif usullari ahamiyatli sanaladi. Shu bilan birga, ishoralarning verballashuvi natijasida hosil bo'lgan leksemani leksik-semantik va mantiqiy tahlil qilish ishoraning kommunikativ aktdagi mohiyatini ochib beradi. Ishora mazmunining reallashishida qiyoslash yo'sini birini ikkinchisidan farqlash uchun ishlatiladi.

Natijalar

Paralingvistika bo'yicha A.Nurmonov "O'zbek paralingvistik vositalari" [7. B. 169–186] asari bilan o'zbek tilshunosligida ushbu yo'nalishga asos solgan. Unda o'zbeklar aloqa-aralashuvida tasdiq va inkorning paralingvistik yo'l bilan ifodalanishi haqida ma'lumotlar berilgan. M.Saidxonov esa aloqa-aralashuvda noverbal vositalarning ishlatilishi va tasniflanishi haqida tadqiqot olib borgan bo'lib, unda asosiy e'tibor kommunikativ aktga qaratilgan [8].

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida paralingvistik vositalar yo'nalishi keng jabhada ilmiy jihatdan tadqiq etilmoqda. M.Qurbonov noverbal muloqotni ifodalovchi vositalarni o'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillaridagi xillarini tadqiq etgan bo'lsa [9], B.Ahmedov paralingvistik vositalarni genderologik jihatdan o'rgandi [10], A.Meliqo'ziyev paralingvistik vositalarning tipologik tadqiqini amalga oshirdi [11], G.Hasanova [12] va N.Xursanovlar [13] mos ravishda noverbal vositalarning dialogik nutqdagi va dramatik diskursdagi o'rni haqida ilmiy tadqiqot olib bordilar. M.Barotova esa paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqini amalga oshirdi [14].

Paralingvistika faqatgina kishining harakatlarini va holatlarini o'rganadigan fan tarmog'i bo'lmasdan, u o'z oldiga nutqiy jarayon bilan bog'liq lingvistik faktorlarning funksional aloqasini, chegarasini, xususiyatlarini va o'zaro bog'liqligini tekshirishni maqsad qilib qo'yadi [15].

L.Blumfild o'zining "Til" kitobida yozishicha: "Imo-ishora doimiy ravishda kishi nutqini kuzatib boradi, chunki har qanday murakkab hamda tushunarli ishora oddiy nutq asosiga quriladi" [16. B. 7] va tabiiy aloqa-aralashuvda ishlatiladi.

A.F.Koni o'z asarida imo-ishoralar nutqni jonlantirishini, lekin ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerakligini yozadi. Ekspressiv imo-ishora (ko'tarilgan qo'l, siqilgan musht, o'tkir va tez harakat va boshqalar) berilgan ibora yoki alohida so'zning ma'nosi va fikrni qo'llab-quvvatlashi kerak (bu yerda imo-ishora ovoz toni bilan bir vaqtda ishlaydi, nutq kuchini ikki baravar oshiradi) [17].

L.A.Kapanidze va Ye.V.Krasilnikovalar kommunikativ jihatdan ishoralarni a) belgi bildiruvchi (ko'rsatuvchi, tasvirlovchi, ramziy belgilar) va b) belgi ifodalamaydigan (ritmik va emotsional) guruhlarga ajratadi. E.Y.Kedrova esa mazkur tasnifga "yarim belgi ifodalaydiganlar" guruhni kiritadi [2. B. 12].

Kuzatishlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, noverbal vositalarning ishlatilishiga ko'ra ular anglatayotgan tushuncha asos qilib olinib, shunga ko'ra ishoralar quyidagicha tasnif etiladi.

a) ko'rsatuvchi belgilar;
b) izohlovchi-ta'kidlovchi belgilar;
d) ramziy belgilar;
e) tasvirlovchi belgilar;
f) emotsional belgilar.

Ko'rsatuvchi belgilar aloqa-aralashuvda axborot beruvchi noverbal vositalardan hisoblanib, kommunikativ aktda faol qo'llanadi va predmet, voqea-hodisa yoki belgini ko'rsatish uchun ishlatilib, kompensatsion va verbal vositani kuzatib boruvchi belgi sanaladi.

Ko‘rsatuvchi belgilar *qo‘l, bosh, gavda, nigoh* (ko‘z) orqali ifodalanadi. Bunday belgilar *ko‘rsatmoq, ishora qilmoq, imo qilmoq* kabi fe’llar yordamida beriladi.

– Enang bormi uyda?

– Yo‘q, chopiqda. Huv anyoqda! – deb ***qo‘lim bilan*** *soy tomonni* ***ko‘rsatdim****. (S.Siyoyev)*

– Xullas, volidai muhtaramamizning iltimoslari rad etilurmi?

Bir-biridan qo‘rqinchli takliflar ko‘payib ketganidan keyin Shayboniyxonning ***ishorasi bilan*** *mulla Abdurahim* ***hammani jim qildi.*** (P.Qodirov)

Har ikkala misoldan ko‘rinib turibdiki, ko‘rsatish ma’nosini ifoda etayotgan noverbal vositalar kommunikativ aktni ro‘yobga chiqarishda ahamiyatli sanaladi va axborot uzatish vazifasida ishlatilmoqda. Dialogli nutqning tarkibi (komponenti) bo‘lib turgan noverbal vosita ishlatilmasa, birinchi misoldagi “huv anovi yoqda!” birikmasidan adresat hech qanday axborot olmasligi mumkin. Keltirilgan ikkinchi misolda ham Shayboniyxonning ishorasi orqali bildirilgan ifoda fikr almashuvni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayrim ko‘rsatuvchi belgilar shartli xarakterda bo‘lib, matnda reallashadi. Masalan, “Uning bu yerida hech narsa yo‘q”, – deb ko‘kragini (yuragini) ko‘rsatsa, hissiz, bee’tibor ekanidan darak beradi. Bunday o‘rinda ishora kommunikativ akt doirasida ko‘rib chiqiladi, suhbat mazmuni va vaziyat e’tiborga olinadi. Yoki auditoriyada ma’ruza bo‘lyapti. Talaba sherigining nigohini poylab, ko‘rsatkich barmog‘i bilan soat taqiladigan bilak qismiga ishora qildi. Bundan adresat Soat necha bo‘ldi? Vaqt tugadi. Tezroq bo‘l, kech qolyapmiz kabi ma’nolarni uqishi mumkin.

Izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar ma’lum voqea-hodisa, belgi, holat, harakat yoki predmet haqida ma’lumot ifodalab mantiqiy jihatdan hukmni bildiradi. Bunday belgilar tasdiq, inkor, noma’lumlik, gumon, xayrixohlik kabi ma’nolarni izohlaydi va ta’kidlaydi. Izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar substitutsion xarakter kasb etadi va boshqa noverbal vositalarga nisbatan kommunikativ aktning tabiiy tarkibiy qismi ekani bilan hamda faol ishlatilishi bilan farqlanib turadi. “Bosh irg‘amoq” tasdiq ma’nosini ifodalasa, “bosh barmog‘ini yuqoriga qarata nuqish” yaxshi, zo‘r ma’nosini ifodalaydi. “Ko‘z qisish”, “lab burish”, “boshni sarak-sarak qilish” va boshqa harakatlar orqali izohlov-ta’kidlov ma’nolari ifodalanadi.

– Jiyan, mana, o‘qishni ham bitiryapsan, nima ish qilmoqchisan?

Sattor tog‘asiga qarab kuldi-da, yelkasini qisdi. (O‘.Usmonov)

– Savollar bormi?

O‘rtada boshini quyi solib, chap qo‘li bilan ko‘k daftarga rasm chizib o‘tirgan kapitan ***qo‘l ko‘tardi.***

– Marhamat (M.Karim).

Izohlovchi-ta’kidlovchi belgilar yuqoridagi misollarda dialogik nutqda fikrni ifodalab, kompensatsion xarakter kasb etayotgan bo‘lsa, ba’zi o‘rinlarda verbal fikrni ta’kidlab, izohlab kelgan.

– Qonga qon!– dedi yigit.

– Zinhor! – dedi eshon ***qo‘lini*** *baland* ***ko‘tarib*** (T.Malik).

Ramziy belgilar etiket (adab) shakllari bilan aloqador bo‘lib, muomala madaniyatida shakllanib qolgan urf-odat, diniy rituallar, irim qilish va boshqa an’anaviy xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Ramziy belgilar ham axborot berish uchun ishlatiladigan belgi sanalib, “qo‘lni qovushtirish”, “qo‘l olishuv”, “tiz cho‘kish” va qator xatti-harakatlar ramziy noverbal vositalar sirasiga kiradi, bu ishoralarning prototipi o‘zbeklardagi adab qoidalari, urf-odatlar bilan bog‘liqdir.

Bu so‘zlardan ko‘ngli iyib, ko‘zlari olovlanib ketgan elchi o‘rnidan turib, Boburga egilib ***ta’zim qildi****.* (P.Qodirov)

Nosirov qabulxonada hurmat yuzasidan ***o‘rnidan turgan*** *yordamchisi – 22 yoshlardagi baland bo‘yli, xushqomat, juda nozik qizga salom berib, kabinetga kirib ketdi*. (A.Qahhor)

Sahna asari yakun topgach, teatr yoki konsert zalida ishtirokchilar chiqib tomoshabinlar qoshida turli ramziy ishoralarni qiladilar: ta’zim qiladilar, qo‘llarini ko‘kraklariga qo‘yib tomoshabinlarga qulluq qiladilar yoki ikki qo‘llarini ikki tomonga yoyib olqishlarga, qarsaklarga minnatdorlik bildiradilar. Bular barchasi shartli bo‘lib, mos ravishda ramziy ma’no ifodalaydi. Bu tilning belgilar tizimidan iborat ekanligining isboti sanalib, muayyan ishoralar belgi vazifasini bajaradi va muqim ma’no ifoda etadi.Ularning tavsifi mantiq asosiga qurilgan bo‘lib, o‘ng qo‘lni chap ko‘krakka (yurak ustiga) qo‘yish *chin dildan, chin yurakdan* ma’nolarini bildiradi.

Z.Z.Chenishova ramziy (simvolik) vositalarni paralingvistik vositalarning markazida turishini alohida ta’kidlab o‘tadi [18. B. 3]. R.P.Volos esa bu xarakterdagi noverbal vositalarni “urf-odat ishoralari” deb nomlaydi va uning tarkibiga barcha urf-odat bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni kiritadi (yo‘lga chiqishdan oldin bir karra o‘tirib olish, qo‘lni qo‘lga urishtirish bilan kelishishni ifodalash va boshqalar) [19. B. 79].

Bizningcha, R.P.Volosning urf-odat bilan bog‘liq hodisalarning barchasini noverbal vosita deb aytgan fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi. Negaki, paralingvistik vosita lingvistik jihatdan atamalik (nominativ) xususiyatiga ega bo‘lishi, bir tushuncha yoki fikrni ifodalab kelishi, shu bilan birga, bir ma’noli xabarni bildirib kelishi kerak [20. B. 14 –15].

Ramziy belgi kommunikativ akt tarkibida bo‘lgandagina noverbal vosita sifatida talqin etilishi mumkin.

Tasvirlovchi belgilar narsa, voqea, hodisa, harakat, holat va ularning belgilarini tasvirlash asosida ifodalaydi. Bunday noverbal vositalar orqali ifoda etilayotgan tushuncha o‘sha narsa, belgi, harakat, holatni turli jihatdan tasvirlab beradi. Tasvirlovchi ishoralar individual nutq mahsuli bo‘lib, aloqa-aralashuvdagi faolligiga qarab muqimlashishi, umumiylik kasb etishi va simvolik xususiyat ifodalashi mumkin [2]. Tasviriy belgilar ma’lum narsa, holat, belgini ifodalashda so‘z ojizlik qilganda, fikrni ifodalashda nutqdan hissiyot ustun kelganda, biror narsa haqida tinglovchiga tasvirlash kerak bo‘lib qolganda ishlatiladi.

Masalan, “bormoq” ma’nosi ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarni pastga qarata odam yurayotgan singari harakatlantirish asosida ifodalanadi. Ikki qo‘l bilan chaqaloqni ko‘targan kabi tebratish *bola, chaqaloq* ma’nosini ifodalash uchun ishlatiladi.

Avval hamma hayron bo‘lib qoldi, keyin ***imo-ishora bilan*** *shaftoli va olcha danaklarini eb bo‘lmasligini tushuntirishga harakat qilib ko‘rishdi*. (O.Yoqubov)

Aloqa-aralashuv jarayonida tasavvur orqali tushuncha yoki fikrni ifoda etish kommunikantlar tomonidan narsa va belgini idrok etish asosida yuzaga chiqadi. Idrok qilingan narsa, belgi, harakat yoki holatni adresatga yetkazishda tasviriy belgi kommunikativ vazifa bajarib keladi.

Bunday ishoralar nominatsiyasi kishi organlari harakatini vizual ifodalash orqali hosil qilinadi. Jumladan, o‘zbeklarning qo‘lda oshni oshash holatining vizual ko‘rinishi “palov osh” ma’nosini ifodalab keladi. Ya’ni o‘ng qo‘l barmoqlarining tovoqdan oshni olish jarayoni va qo‘lni og‘izga tomon harakatlantirish (xuddi oshni oshagan kabi) namoyish etiladi. Ushbu ishoraviy harakatdan anglashilgan ma’no holat va kontekstdan kelib chiqib, **palov osh** semasi saqlangan holda turli ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Harakatning nominatsiyasi **osh** (palov ош), **osh emoq** ma’nolarini bildirib keladi. Bu o‘rinda nomlash tasviriy ishoraning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Jonli so‘zlashuvda jo‘ralarga qarata qo‘l yordamida oshni oshash harakati *osh tayyorlamoq, oshga bormoq, osh emoq, tayyorlangan taom* osh ekani kabi ma’nolarni bildiradi. Bu ma’no(lar) vaziyat yoki kontekstda reallashadi.

Tasvirlovchi noverbal vositalar ko‘proq qo‘l harakati asosida amalga oshiriladi, chunki qo‘l orqali katta, kichik, yumaloq, uzunchoq, baland, past va boshqa belgilar; turli shakllar, predmetlar tasviri, miqdor, harakat, holat, ularning belgisini ifodalash mumkin.

... Ulardan biri novcha, qotma kishi, o‘rnidan turdi-da, Ahmadjonga qarab muloyim jilmaydi. Keyin darvoza orqali bu yoqqa kir, deganday ***qo‘lini aylantirib ko‘rsatdi****. Ahmadjon ishorani tushundi.* (Y.Shamsharov)

Tasvirlovchi belgilar bosh, gavda, oyoq, ko‘z va boshqa organlar yordamida ham ma’lum axborot berish uchun ishlatilishi mumkin.

Emotsional belgilar insonning hissiyoti bilan bog‘liqdir. Verbal jihatdan shakllanmasdan, insonning sezgilari, his-tuyg‘ulari orqali uzatilayotgan axborot “emotsional til”dir. (Dj.Treyter)

Adresant va adresat muloqot davomida uzatayotgan axborotga o‘z hissiyotini ham qo‘shib ifodalashi tabiiy sanaladi. Zero, inson o‘z nutqini hissiy boshqarib boradi. Natijada uzatilayotgan axborotga hayajon, quvonch, zavq, nafrat, qayg‘u, bezovtalik, sarosima, chalkashlik, afsuslik va boshqa hissiy-ruhiy holatlar qo‘shilib ifodalanadi. Bu holatlar so‘zlovchining ovoz ohangi, imo va ishoralari, sumbati (poza), gavda harakatlari, sukuti kabi noverbal vositalar bilan beriladiki, tinglovchi belgilarni interpretatsiya qiladi va mos ravishda javob qaytaradi.

Shaxsning muomala jarayonida ma’lum axborotni uzatishda emotsional holat inson aloqa-aralashuvining ajralmas qismi ekanligi fiziologlar, psixologlar, tilshunoslar tomonidan qayd etib o‘tilgan.

Fiziologlar inson va hayvonlarda tashqi olamga munosabat ichki hissiyot ta’sirisiz bo‘lishi mumkin emasligini aytsalar, tilshunoslar so‘zlovchi va tinglovchining ma’lum axborot uzatish va qabul qilish jarayonida va uning ifodasida emotsional holatni lingvistik ifodalashga e’tibor beradilar.

Aloqa-aralashuvda ma’lum axborotni uzatishda emotsional-psixologik holatlar ham qo‘shimcha faktor sifatida ahamiyatli sanaladi. Emotsional holat kommunikatsiyada fikrni to‘ldirish yoki verbal vosita o‘rnida qo‘llanishi mumkin.

Masalan: *Deraza oynasini kim sindirdi?– deb berilgan savolga sinf o‘quvchilaridan hech kim javob bermadi. Shu payt Dilshodning yuzi qizarib, qo‘lidagi bosh kiyimini qayerga qo‘yishini bilmay besaranjom bo‘la boshladi.*

Bu misolda insonning his-tuyg‘ulariga mansub bo‘lgan tashqi ifoda (yuzning qizarishi, besaranjom bo‘lish) ma’lum axborot uzatish uchun xizmat qilmoqda.

XIX asr boshidayoq inson faoliyati bo‘lmish til his-tuyg‘ular bilan organik birlikda ekanini V.fon Gumboldt ta’kidlab o‘tgan edi va u tilni inson bilan birga tekshirish kerakligini aytadi [21].

Psixologlar ta’kidlashicha, inson his-tuyg‘ulari qariyb 500 dan ortiqdir [22]. Lekin bu tuyg‘ularning verbal ifodasida sanoqli so‘zlardan foydalangan

holda ularni nomlaymiz va kontekst orqali ma'nolarini farqlab olamiz [23. B. 23]. O'zbeklar aloqa-aralashuvida turli psixologik emotsional vositalar ishlatilishi mumkin. "Jilmayish", "xo'mrayish", "tirjayish", "kulish", "yig'lash", "jiddiylashish", "qizarish", "oqarish", "ko'karish", ma'lum organlarning hissiy holati, harakati kabilar muomala jarayonidagi umummadaniy holatlar alohida olinganda, ma'lum ma'no bildirsa-da [24. B. 67] konsituatsiya orqali yanada reallashadi.

Choriyorlar tilga olinishi bilan elchining ***rangi o'chib, labi asabiy pirpiradi.*** (P.Qodirov)

Ushbu jumlada shaxsning hissiy holati tashqi qiyofada namoyon bo'lmoqda va elchining psixik holati ma'lum axborotni uzatish uchun ishlatilmoqda.

Emotsionallikni bildiruvchi harakat va holatlar doimo bir xil mazmunni bildirmaydi. "Yig'i" xarakterizatori "xafalik", "achinish", "charchoq", "qo'rqinch", "mehribonlik", "sevinch", "quvonch" kabi ma'nolarni bildirib keladi.

Hovlidan chiqayotgan yig'i ovozini eshitib mo'ysafid ***seskanib ketdi****. (A.Rahmat)*

Saylixon to'lqinlanganidan ***ko'ziga yosh oldi.*** *(S.Anorboy*ev)

U ***labida xanda, ko'zida yosh – sevinganidan yig'lar edi***. (S.Anorboyev)

Insonning turli hissiy holatini bildiruvchi ishoralar muayyan verbal birliklar orqali ifodalanadi va ularning ayrimlari muqim ma'no ifodalashda qo'llanadi. Masalan, *ko'kragiga urmoq ishorasi yelka qismoq, qo'llarini ikki yonga yoymoq, ko'kragiga tupurib qo'ymoq* kabi ishoralar mos ravishda ma'no ifodalab keladi.

Labini tishlamoq birikmasi kommunikativ aktda noverbal vosita sifatida ishlatilganda, pastki yoki ustki lab tish bilan bosiladi, ba'zan bosh ham ikki yonga tebratiladi. Ushbu ishora harakati ramziy ma'noda *noto'g'ri, noo'rin holat; o'kinch, afsus; alam, ozor* kabi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

– Oradan bir aziyatli gap o'tganga o'xshaydi, shunaqami, jiyanim?

Ozoda boshini quyi soldi, piyolani dasturxonga qo'ydi, ustki ***labini tishlagancha*** *jim qoldi.* (R.R.)

Kishining badan harakatlari, gavda o'zgarishlari ham ma'lum mazmun anglatadi. Inson axborotni qabul qilganda, muayyan holatda hissiy ta'sirni tashqi shaklda namoyon qiladi. "Sevinch", "xursandchilik", "jahl", "achchiqlanish" va boshqa shu kabi psixologik holat uning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

– Jilla bo'lmasa, og'zini tiysa ekan! Ketayotganida eshik-eshikka kirib fisq-fasod tarqatibdi-ya, tiling joyida qirqilgur! - usta Umar ***xassasini yerga do'q etkazib bir urdi*** (S.Anorboyev).

– Ha, o'zing ekding-ku, seniki bo'lmay kimniki bo'ladi, bolam.

Turg'unboy sevinchdan **irg'ishladi** (T.Ashurov).

"Mastona-mastona chayqalish" mamnunlikni, "tupurish" achchiqlanishni, "ko'krak kerish" manmanlikni, "qo'lini qo'yarga joy topa olmaslik" hayajonlanganlikni, "ters burilish" norozilikni, "ko'krakka tupurish" qo'rqishni va boshqa hissiy holatlarni ifodalashi mumkin.

Ayrim hollarda kishi o'ta hayajonlangan paytlarda, inson kerakli so'zni topa olmay qolganda, xususan, qo'rquv, hayronlik, achchiqlanish, nafrat, sevinch, g'urur va boshqa holatlarda unga paralingvistik vositalar yordamga keladi va aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

U qiynalib arang nafas olar, yuzlari ko'karib, ko'z soqqalari g'alati tarzda o'zgarib ketgandi. O'ng qo'li bilan chap ko'ksini g'ijimlab bo'g'riqardi: Shubha yo'qki, bu galdagi yurak xuruji edi. (U.Hamdam)

Keltirilgan parchada garchi qahramon biror og'iz so'z aytmagan bo'lsa-da, kitobxon asar personaji holatini anglab oladi. Personajning holatidagi o'zgarishlar va shuning natijasida uzatilayotgan "xabar" matnning davomini o'qiganimizda, boshqalarga ham yetib borganining guvohi bo'lamiz.

Nima bo'ldi, tog'a, yurakmi? – dovdirab qolgan Halima aya dabdurustdan nima tadbir ko'rishini bilmay tutildi. – Yusuf, o'g'lim, qo'shnilarga ayt, do'xtir chaqirsin!.... (У.Намдам)

Muhokama

Ko'rinib turibdiki, tasvirlovchi ishoralar aniq tashqi ko'rinish asosida hosil qilinsa, ramziy ishoralar adresat uchun mavhum bo'lib, uning mazmuni ma'lum xalq, kollektiv, guruh, jamoa yoki oila davrasida reallashadi. Masalan, turli xalqlarda salomlashuv ishorasi turfa shaklda ifodalanadi, lekin har bir jamoa uchun tushunarli bo'ladi. Bu esa noverbal vositalarning ishlatilish ko'lamiga ko'ra internatsional, milliy, individual va professional bo'lishi mumkinligidan dalolatdir.

Avstraliya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniyada ikki yoyilgan barmoq (ko'rsatkich va o'rta) kaftingiz sizdan uzoqqa qaragan holda bo'lsa, **g'alaba belgisi** sifatida xizmat qiladi. Ammo agar siz kaftingizni o'zingizga qaratsangiz, bu imo-ishora "**keting**!" ma'nosini bildiradi. Yoki yuqorida ko'rsatilganiday, ikki barmoqning ochiq holati Yevropada **g'alaba** ma'nosini ifoda etadi. Ayrim mamlakatlarda esa bu ishora **ikki** raqamini bildirib keladi.

Bu esa noverbal vositalarning ishlatilish ko'lamiga ko'ra internatsional, milliy, individual va professional bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Aksariyat xalq va elatlar, millatlar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi, ular uchun tushunarli bo‘lgan noverbal vositalarni baynalmilal noverbal vositalar jumlasiga kiritsak, to‘g‘ri bo‘ladi. *Do‘q, po‘pisa* mazmunidagi gaplar talaffuzida ovozning baland ko‘tarilishi, so‘roq gapdagi yuqori ohang, tasdiq va inkor ifodalashdagi bosh harakatlari, turli modal munosabatlarda kishi yuzidagi o‘zgarishlar, chaqirish, sevinch kabi ma’nolarni ifodalashdagi qo‘l, bosh harakatlari, ko‘proq tasvirlov xarakteridagi ishoralar internatsional noverbal vositalar sirasiga kiradi.

Ma’lum tipiklashgan noverbal vositalar jamiyat kishilari tomonidan ishlatilgach, standart shaklga kiradi va u verbal vositasiz ham alohida holda mazmun ifodalaydi. Noverbal vositalarning bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashishi lug‘aviy birliklarning o‘zlashishidan ko‘ra osonroq va keng ko‘lamli bo‘ladi. Chunki o‘zaro tillarini tushunmaydigan kishilarning aloqasida noverbal vositadan foydalanish birlamchi sanaladi.

*– O-o, bravo, bravo! – dedi **chapak chalib** chet ellik bosh mehmon. (*R.Rahmon)

Yerliklar Shomjun va Damon Darayni mehmon qilmoqchi ekanliklarini bir amallab tushuntirdilar.

*Shomjun kohinga **savolchan nazar tashladi**. Uning **jilmayib turishidan** rozi ekanligini bildi va **boshini qimirlatib** ruxsat etdi.* (O.Yusupov)

Milliy xarakterdagi noverbal vositalar ma’lum xalq, millat yoki elatlar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi ishoralar sanalib, ishlatilish ko‘lami chegaralangani bilan xarakterlanadi. Bunday noverbal vositalar milliy xususiyatlarni o‘zida gavdalantiradi, urf-odatlar bilan, ritual va adab xatti-harakatlari bilan aloqador bo‘ladi. Musulmon xalqlaridagi “duo qilmoq”, “fotiha qilmoq” ishoralaridan anglashiladigan mazmun ko‘p xalq vakillari uchun qorong‘i.

Muloqotda noverbal (paralingvistik) vositalarni tushunib etish va o‘zga tillarga tarjima qilish masalasi hozirgi kunga kelib muammoligicha turibdi, hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu masalani hal etish uchun barcha tillarda ishoralar ilmiy tadqiq etilishi, ularng izohli lug‘atlari tuzilishi va so‘ng muayyan tillardagi imo-ishoralarning tarjima lug‘atlari tayyorlanishi kerak. To‘g‘ri, ayrim holatlarda noverbal vositalar verbal muloqot bilan umumiy yoki uning komponenti o‘rnida o‘rganilgan, lekin bu bilan noverbal vositalarning muloqotda tutgan o‘rnini va mazmun-mohiyatini to‘liq o‘rganilgan deb bo‘lmaydi, chunki muayyan bir tilda qo‘llanilgan verbal vositalarning ikkinchi bir til vakili tomonidan tushunilishi qiyin masala bo‘lib, aytilayotgan tildagi noverbal vositalarning lingvopragmatik jihatlarini bilish talab qiladi.

Masalan, *peshonasiga kafti bilan engil urish* (afsusni), *ko‘zlarini qo‘llari bilan to‘sish* (afsus, uyatni), *ikki qulog‘ini tortish* (tug‘ilgan kun bilan tabrikni, yoshiga nisbatan sanash), *qulog‘ini tortib qo‘yish* (eshitgan xabardan himoyalash), *yon peshonani ko‘rsatish* (haqoratni), *ko‘rsatkich barmog‘i bilan lunjini ko‘rsatish* (uyalish, tahdidni), *ko‘rsatkich barmog‘ini labiga tekkizish* (jimlik, gapirmaslikni), *qo‘li bilan og‘zini to‘sish* (afsus, nadomatni), *qo‘llari bilan boshini mushtlash* (qattiq qayg‘u, alam), *sochlarini yulish* (og‘ir musibatni boshdan o‘tkazish) va *qo‘llarini yuziga surtish* (duo)ni kiritish mumkin. Bu yerda ushbu ishoralar vaziyat va nutq kontekstiga qarab tanlanadi.

Fotiha qilmoq / yuziga fotiha tortmoq / duo qilmoq / ikki qo‘lini yuziga tortmoq ishorasida ikki qo‘l kafti barmoqlar ochiq holatda ko‘krak balandligidan yuz tomon olib boriladi va yuqoridan pastga harakatlantiriladi. Bunda duo qilish, fotiha qilish, niyat, orzu, tilak ifoda etish kabi ma’nolar ifoda etiladi.

Masalan, *U dasturxonga **fotiha qildi***. (S.Siyoyev.)

Individual noverbal vositalarga ko‘proq tasvirlovchi ishoralar kiradi, chunki ma’lum predmet, voqea, belgi, harakat yoki holatni hamma turli jihatdan idrok qiladi va o‘shanday tarzda suhbatdoshiga yetkazishga harakat qiladi. Individual noverbal vositalarning aloqa-aralashuv jarayonida faol qo‘llanishi ularning ommalashishiga asos bo‘ladi.

Professional noverbal vositalarga ma’lum kasb, mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi kishilar aloqa-aralashuvidagi ishoralar kiradi. Sport musobaqalaridagi hakamlar, chorrahada mashina yoki yo‘lovchilar harakatini tartibga soluvchi militsioner harakatlaridan, shu soha kishilari yoki qiziqqanlargina axborot olishlari mumkin.

Xulosa

O‘tgan asrning 80-yillaridan o‘zbek tilshunosligida paralingvistika bo‘yicha tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib noverbal vositalarning kommunikativ xususiyatlari bo‘yicha 10 dan ortiq monografik planda ilmiy ishlar bajarildi. Bu ishlar paralingvistik vositalarning nazariyasi, ilmiy yangiligi, ishoralarning kommunikativ akt doirasida ishlatilishi, noverbal vositalarning somatik jihatdan tahlili, ularning tasniflanishi, verballashuvi, badiiy matnda ishlatilishi va ifoda ma’nolari xususida, shuningdek, ishoralarning milliy, baynalmilal, kasbga doir turlari tadqiq etildi.

Shu bilan birga, nonutqiy vositalarning ishlatilishiga ko‘ra: ko‘rsatuvchi, izohlovchi-ta’kidlovchi, ramziy, tasvirlovchi, emotsional belgilar alohida ajratilib tahlil qilindi, aloqa-aralashuvda internatsional, milliy, indi-

vidual va professional ishoralar ham tadqiq etilgan.

Aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi imo-ishoralar, ma'no ifodalovchi gavda harakatlari, ovozning ma'noviy sifat o'zgarishlari paralingvistik yo'sindagi tadqiqotni bildirsa, uning verballashuvi, ishora fe'llari maqomida ishlatilishi, leksik-semantik, morfologik, sintaktik va struktur xususiyatlari, matn tarkibida ularning uslubiy jihatlari lingvistik aspektda o'rganiladi. Bu esa ichki va tashqi tilshunoslikning dialektik tarzda tadqiq etilishidan dalolatdir.

Adabiyotlar:

1. *Колшанский Г.В*. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. – Москва: Наука, 1975. – 231 с.

2. *Кедрова Е.Д*. Вербальное обозначение жестов персонажей при передаче прямой речи в художественном тексте (на материале прозы Чехова): Автореф. дисс. …канд. филол.наук. – Ростов на Дону, 1980. – 24 с.

3. *Капанидзе Л.А., Красильникова Е.В.* Жест в разговорной речи / В книге "Русская разговорная речь". – Москва: Наука, 1973. – 464 с.

4. Русско-узбекский словарь. / Под общ. руковод. акад. В.В.Решетова. – Тошкент: Ўқитувчи. 1972. – 623 с.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II томли. 1-том. / З.М.Маъруфов таҳрири остида. – Москва: Русский язык, 1981. – 632 б.

6. *Кошғарий М*. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1973. – 550 б.

7. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 448 б.

8. *Саидхонов М.* Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 143 б.

9. *Қурбонов М*. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. б.фалс. док. (PhD) …дисс. – Андижон, 2021. – 155 б.

10. *Аҳмедов Б.* Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) …дисс. – Андижон, 2021. – 153 б.

11. *Meliqo'ziyev A.* Paralingvistik vositalarning tipologik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok.(PhD) …diss. – Qo'qon, 2024. – 152 б.

12. *Hasanova G*. Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok.(PhD) …diss. – Farg'ona, 2023. – 149 b.

13. *Хурсанов Н*. Драматик дискурсда вербал ва новербал компонентлар муносабати: Филол. фан. б. фалс. док.(PhD) …дисс. автореф. – Андижон, 2023. – 55 б.

14. *Barotova M*. O'zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok.(PhD) …diss. – Бухоро, 2024. – 154 b.

15. *Колшанский Г.В*. Функции паралингвистических средств языковой коммуникации // Вопросы языкознание, 1973. – № 1. – С. 16–25.

16. *Блумфильд Л.* Язык. – Москва: Прогресс, 1968. – 606 с.

17. Кони А.Ф. Избранные труды и речи. В 2 ч. Часть *1.* – Москва: Издательство Юрайт, 2016. – 363 с.

18.*Ченишова З.З*. Лексические средства обозначение паралингвисти-ческих компонентов речи в английском языке: Автореф. дисс. …канд. филол.наук. – Москва, 1979. – 25 с.

19. *Волос Р.П*. Введение в изучение невербальной коммуникации русского языка. // Страноведение и преподавание русского языка иностранцам. – Москва, 1972. – С. 79–86

20. *Колшанский Г.В*. Паралингвистика. – Москва: Наука, 1974. – 79 с.

21. *Гумбольдт В*. Характер языка и характер народа. / В кн.: Язык и философия, культура. – Москва: Наука, 1985. – 448 с.

22. *Бабенко Л.Г*. Лексическое средств обозначение эмоции в русском языке. – Свердловск: Изд. Уральского ун-та, 1989. – 182 с.

23. *Додонов В.И*. Классификация эмоции при исследований эмоциональной направленности личности. // Вопросы психологии, 1975. – № 6. – С. 21–33.

24. *Николаева Т.М., Успенский В.А*. Языкознания и паралингвистика // Лингвистичевкие исследования по общей и славянской типологии. – Москва: Наука, 1966. – С. 63–74.

25. *Боровков А.К*. Лексика Среднеазиатского Тефсира XII–XIII вв. – Москва: Восточная литература, 1963. – 365 с.

TYPES OF NONVERBAL MEANS OF COMMUNICATION ACCORDING TO THEIR USAGE

Mamurjon M.Saidkhonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 102-110.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str, University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu info@edu.uz

Key words: paralinguistics, demonstrative, explanatory-emphasizing, symbolic, descriptive, emotional signs.

Gestures used in communication among Uzbeks are expressed through the movements of specific body parts (head, hands, shoulders, eyes, eyebrows, etc.) and are considered an integral part of Uzbek conversational practices. Every expression is a synthesis of logical content and emotional-expressive relations, with its form of expression reflecting emotional semantics.

Paralinguistics is not merely a field of study that examines human movements and postures; it also aims to investigate the functional connections, boundaries, features, and interrelations of linguistic factors associated with the speech process.

In determining the types of nonverbal means based on their usage, the analysis of the communicative act becomes essential. The focus lies on the purpose for which a gesture is used, prioritizing the content it conveys. Consequently, methods of depiction and description play a significant role in its analysis.

Observations revealed that in the classification of nonverbal means based on their usage, the concept they signify serves as the foundation. Accordingly, gestures are classified as follows:

a) indicative signs;
b) explanatory-emphatic signs;
c) symbolic signs;
d) descriptive signs;
e) emotional signs.

Indicative signs are nonverbal means of communication that convey information and are actively used in communicative acts. These signs serve to indicate objects, events, phenomena, or attributes, functioning as compensatory elements or as accompanying markers for verbal communication.

Explanatory-emphatic signs express information about specific events, phenomena, attributes, conditions, actions, or objects, logically reflecting judgments. Such signs explain and emphasize meanings like affirmation, negation, uncertainty, suspicion, or goodwill. They have a substitutional nature, distinguishing themselves from other nonverbal means by being a natural and integral part of the communicative act and by their active use.

Symbolic signs are associated with forms of etiquette and include traditional actions embedded in cultural interaction practices, such as customs, religious rituals, superstitions, and other conventional behaviors. These signs are also used to convey information, with examples including gestures like “folding hands,” “handshakes,” and “kneeling.” Symbolic nonverbal means are deeply connected to Uzbek norms of decorum, customs, and traditions.

Descriptive signs express objects, events, phenomena, actions, conditions, and their attributes by depicting them. Through such nonverbal means, the conveyed concept is described from various perspectives, highlighting the features of the object, action, or condition. Descriptive gestures are products of individual expression and, depending on their activity within communication, can become stabilized, gain general acceptance, or acquire symbolic characteristics.

Emotional signs are connected to human emotions. Without taking a verbal form, they represent the “emotional language” through which feelings and sensations are conveyed (J. Treiter).

Physiologists, psychologists, and linguists have noted that emotional states are an integral part of human communication when transmitting certain information during interaction.

References:

1. Kolshanskij, G.V. (1975) Sootnoshenie sub»ektivnyh i ob»ektivnyh faktorov v yazyke [The Correlation of Subjective and Objective Factors in Language]. Moscow: Nauka.

2. Kedrova, E.D. (1980) Verbal'noe oboznachenie zhestov personazhej pri peredache pryamoj rechi v hudozhestvennom tekste (na materiale prozy Chekhova) [Verbal Representation of Characters' Gestures in Direct Speech in Literary Texts (based on Chekhov's prose)]. Abstract of dissertation candidate of philological sciences. Rostov na Donu.

3. Kapanidze, L.A., Krasil'nikova, E.V. (1973) Zhest v razgovornoj rechi [Gestures in Conversational Speech]. In: «Russkaya razgovornaya rech'» [«Russian Colloquial Speech»]. Moscow: Nauka.

4. Reshetova, V.V. (ed.) (1972) Russko-uzbekskij slovar' [Russian-Uzbek Dictionary]. Tashkent: O'qituvchi.

5. Ma'rufov, Z.M. (ed.) (1981) O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. In 2 volumes. Vol.1. Moscow: Russkij yazyk.

6. Koshg'ariy, M. (1973) Devonu lug'otit turk [Divan Lughat al-Turk]. Index-Dictionary. Tashkent: Fan.

7. Nurmonov, A. (2012) Tanlangan asarlar [Selected works]. In 3 volumes. Vol.1. Tashkent: Akademnashr.

8. Saidhonov, M. (1993) Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi []. The dissertation for Doctor of Philological Sciences. Tashkent.

9. Qurbonov, M. (2021) O'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi []. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Andijan.

10. Ahmedov, B. (2021) Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi [Pragmatic and Genderological Study of Paralinguistic Means]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Andijan.

11. Meliqo'ziyev, A. (2024) Paralingvistik vositalarning tipologik tadqiqi [Typological Study of Paralinguistic Means]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Qo'qon.

12. Hasanova, G. (2023) Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari [The Role of Nonverbal Means in Dialogic Speech and Their Pragmatic Features]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Farg'ona.

13. Khursanov, N.(2023) Dramatik diskursda verbal va noverbal komponentlar munosabati [The Relationship between Verbal and Nonverbal Components in Dramatic Discourse]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Andijan.

14. Barotova, M. (2024) O'zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi [Systematic Study of Uzbek Paralinguistic Means]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Bukhara.

15. Kolshanskij, G.V. (1973) Funkcii paralingvisticheskih sredstv yazykovoj kommunikacii [Functions of Paralinguistic Means in Linguistic Communication]. *Voprosy yazykoznanie*. No 1. Pp. 16-25.

16. Bloomfield, L. (1968) Yazyk [. Language]. Moscow: Progress.

17. Koni, A.F. (2016) Izbrannye trudy i rechi [Selected Works and Speeches]. In 2 parts. Part 1. Moscow: Izdatel'stvo Yurajt.

18.Chenishova, Z.Z. (1979) Leksicheskie sredstva oboznachenie paralingvisti-cheskih komponentov rechi v anglijskom yazyke [Lexical Means for Denoting Paralinguistic Components of Speech in the English Language]: Abstract of dissertation candidate of philological sciences. Moscow.

19. Volos, R.P. (1972)Vvedenie v izuchenie neverbal'noj kommunikacii russkogo yazyka [Introduction to the Study of Nonverbal Communication in Russian]. In: Stranovedenie i prepodavanie russkogo yazyka inostrancam [Country Studies and Teaching Russian to Foreigners]. Moscow. Pp. 79-86.

20. Kolshanskij, G.V. (1974) Paralingvistika [Paralinguistics.]. Moscow: Nauka.

21. Humboldt, W. (1985) Harakter yazyka i harakter naroda [The Character of Language and the Character of a Nation]. In: Yazyk i filosofiya, kul'tura [Language, Philosophy, and Culture]. Moscow: Nauka.

22. Babenko, L.G. (1989) Leksicheskoe sredstv oboznachenie emocii v russkom yazyke [Lexical Means for Expressing Emotions in the Russian Language]. Sverdlovsk: Izd. Ural'skogo un-ta.

23. Dodonov, V.I. (1975) Klassifikaciya emocii pri issledovanij emocional'noj napravlennosti lichnosti [Classification of Emotions in the Study of Personality's Emotional Orientation]. *Voprosy psihologii*. No 6. Pp. 21-33.

24. Nikolaeva, T.M., Uspenskij, V.A. (1966) Yazykoznaniya i paralingvistika [Linguistics and Paralinguistics]. In: Lingvistichevkie issledovaniya po obshchej i slavyanskoj tipologii [Linguistic Studies in General and Slavic Typology]. Moscow: Nauka. Pp. 63-74.

25. Borovkov, A.K. (1963) Leksika Sredneaziatskogo Tefsira XII–XIII vv. [Lexicon of the Central Asian Tafsir of the 12th–13th Centuries]. Moscow: Vostochnaya literatura.

Muallif haqida ma'lumot:

SAIDXONOV Ma'murjon Muhammedovich – filologiya fanlari doktori (DSc), Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori. E-mail: saidxonov54@mail.ru